

ISLOM IQTISODIYOTIDA INVESTITSİYALAR VA ULARGA QO’YILADIGAN TALABLAR

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti

Bugungi kunda jahonda islomiy moliya tarmog’i jadal sur’atda rivojlanib borayotgan va ishonchli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o’zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Dunyo bo’ylab islom tamoyillariga mos keladigan 560 dan ortiq bank va 1900 dan ortiq investitsiya fondlari mavjud. Xususi sektorni rivojlantirish bo’yicha Islom korporatsiyasi (XSRIK) va Refinitivning 2022-yilgi hisobotiga ko’ra, 2015-2021-yillar oralig’ida islom moliyaviy aktivlari 2.7 trillion AQSH dollardan qariyb 4 trillion AQSH dollargacha o’sdi (yiligi o’rtacha 15-20 % ga o’sib bormoqda) va 2026-yilga kelib taxminan 5.9 trillion AQSH dollarga yetishi prognoz qilindi²⁰⁴.

Shu bilan bir qatorda, aholisining asosiy qismi musulmonlar (95 foizdan ortiq)dan iborat bo’lgan O’zbekiston uchun ham bu sohani rivojlantirish, ayniqsa, muhimdir. Shuning uchun ham, mamlakatimizda bu sohaga doir bir qator kelishuvlar, investitsion loyihalar, shuningdek, qonunchilik loyihalarini ishlab chiqishga doir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O’zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a’zo bo’ldi. Bugungi kunga qadar jami 2.5 trillion dollardan ortiq bo’lgan 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma’qullangan. Ular doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo’llari, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, sog’liqni saqlash muassasalari zamonaviy jihozlangan va shunga o’xshash ko’plab sohalar va tarmoqlarga islomiy investitsion vositalari orqali moliyalashtirib, mamlakat aholisi uchun ko’plab qulayliklarni bermoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 46-yig’ilishi ochilish marosimida so’zlagan nutqida “Bankning yillik anjumani Toshkentda o’tkazilishi o’ziga xos ramziy ma’noga ega. Biz buni O’zbekistonning islom dunyosi rivojiga qo’shgan hissasi, shuningdek, mamlakatda so’ngi besh yil davomida olib borilayotgan izchil islohotlarning e’tirofi, deb hisoblaymiz”, - deya ta’kidlab o’tgan edi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va Islom taraqqiyot banki Prezidenti ushbu uchrashuvlarida ko’p qirrali sherikchilikni kengaytirish istiqbollari alohida e’tibor qaratdi. Suhbat davomida 2022-2025 yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi hamkorlik dasturini yaqin vaqtlarda qabul qilish va amalga oshirish, shuningdek, Islom taraqqiyot bankining O’zbekistonda to’laqonli vakolatxonasini ishga tushirish, moliyalashtirish instrumentlari samaradorligini oshirish hamda islomiy moliya mahsulotlari va vositalari uchun qonun loyihalarini ishlab chiqish muhim va dolzarb ekanligi ta’kidlandi. Tomonlar

²⁰⁴ Islamic Corporation for the Development of the Private Sector-Refinitiv. "Islamic Finance Development Report 2022

o’rtasidagi keng ko’lamli hamkorlik va strategik sherikchilikni rivojlantirish maqsadida o’zaro muloqotlarni davom ettirish hamda yaqindan ishlashga kelishib olindi.

Ma’lumki, har qanday biznes loyihani amalga oshirish uchun muayyan miqdorda investitsiya kiritish talab etiladi. Shu bilan birga, musulmon odam qanday biznes loyihalarga va qay usulda investitsiya kiritish kerakligini bilishi lozim bo’ladi, aks holda dinimiz ta’qiqlagan yoki shubhali loyihalarga sarmoya kiritish xavfi paydo bo’ladi. Bu masala yangi biznes faoliyat turlari paydo bo’layotgan bugungi kunimizda yanada dolzarb bo’lib bormoqda²⁰⁵. Shu sababdan, biz ushbu tadqiqotimizda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida investitsion faoliyatni tashkil qilishning o’ziga xos jihatlarini nazariy asoslarini tadqiq etishni maqsad qildik. Mazkur maqsadga erishish uchun sifat yondashuvidan samarali foydalanildi.

Mustaqil Shariat olimi Shayx Yusuf Talal DeLorenzoning ta’kidlashicha, "Investitsiya qilish musulmonlar o’z pullari ustida yaxshi boshqaruvchi bo’lishlari mumkin bo’lgan usullardan biridir, buni Islom ta’limoti targ’ib qiladi". Dunyo bo’ylab musulmonlar o’rtasida zamonaviy moliyaviy bozorlarga sarmoya kiritish bo’yicha xabardorlik va qiziqishning ortib borayotgani bilan bir qatorda, so’nggi bir necha yil ichida islomiy ta’limotlarni inobatga olgan sarmoyaviy strategiyalar moliya sanoatida kengayib bormoqda²⁰⁶.

Quyida islom iqtisodiyotida investitsiyalarning mohiyati bilan tanishib chiqamiz. Islomiy moliya muassasalari tovar-pul aylanmasi bilan bevosita bog’liq bo’lib, real aktivlar bilan ta’minlangan, shuningdek, mazmuni va tuzilishiga ko’ra o’ziga xos bir qator vositalarni taklif etadi. Islomiy moliya vositalarining o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatib beruvchi tasniflar an’anaviy moliya tizimidan quyida keltirilgan jihatlar bilan tubdan farq qiladi. Islomiy moliya vositalarining xususiyati quyidagi tavsiflarga asoslangan: sudxo’rlikning mavjud emasligi, voqelikdagi qo’shimcha qiymatning yaratilishi, voqelikdagi (real) aktivlar bilan ta’minlanganligi, axloqiy-ma’naviy jihatlardan tashkil topganligi, foyda va zararlarni taqsimlash, ulushli ishtirok va tomonlar har birining axborotdan baravar boxabarligi.

Kuala-Lumpur fond birjasi (KLSE, Malayziya)ning an’anaviy investitsiyalar borasida bergan ta’rifiga ko’ra, an’anaviy investitsiyalarni biznes yoki tadbirkorlikdan ijobiy daromad yoki foyda olish maqsadida vaqt, kuch yoki pul shaklida kapital qo’yish harakati sifatida ta’riflagan. Islomiy investitsiyalarga esa, ijobiy daromad yoki foyda olish maqsadida shariat qoidalariga qat’iy mos keladigan biznes yoki tadbirkorlik faoliyatiga vaqt, kuch yoki pul ko’rinishida kapital qo’yish harakati sifatida talqin etilgan²⁰⁷. Demak, bu yerdagi farq shundaki, sarmoyadan keladigan har qanday daromad halol manbalardan bo’lishini va shu tariqa shaxsiy iste’mol yoki xayriya maqsadlarida ishlatilishini

²⁰⁵ http://www.lightbulbpress.com/pr_islamic/pressrelease.html

²⁰⁶ http://www.lightbulbpress.com/pr_islamic/pressrelease.html

²⁰⁷ Mukhriz Mudaris Mahmud, Islamic Investment Opportunities, presented on 8th September 2001, www.klse.com.my

ta'minlash uchun islom sarmoyasi shar'iy tamoyillarga muvofiq bo'lishi kerakligini taqozo etadi. Demak, bu yerda shuni aytishimiz mumkinki, islomiy investitsiyalardan maqsad faqat shaxsiy foydalanish uchun imkon qadar ko'proq boyluk to'plash emas, balki sarmoyalar nafaqat investorga, balki butun jamiyat va ummatga foyda keltirishi, sarmoyalarning Qur'on va Sunnat ta'limotlari bilan uyg'un bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Shunday qilib, islom investitsiyasi, Alloh taolo Qur'onda aytganidek, birodarlik va barchaning manfaati uchun bir-birlariga yordam berish tuyg'usini o'z ichiga oladi: *“...Yaxshilik va taqvo yo'lida bir-biringizga yordam bering, gunoh va adovatda bir-biringizga yordam bermang...”* Moida surasi 2-oyat²⁰⁸. Shuningdek, islomiy investitsiyalarni boshqaradigan bir qator tamoyillar mavjud bo'lib, ular uni an'anaviy investitsiyalardan farqli jihatlarini ko'rsatib turadi. Quyida Malayziya Shariat kengashi tomonidan belgilangan tamoyillar keltirilgan²⁰⁹:

1. Islomiy investitsiyalar shariat tamoyillariga muvofiq bo'lishi kerak, ular uchta manba: Qur'on, Sunnat va Islom ulamolarining ijmosiga asoslanadi;

2. Investitsiyalar halol deb sanalgan biznes faoliyatiga kiritilishi kerak. Shuning uchun, ribo, qimor, g'arar kabi unsurlarni o'z ichiga olgan faoliyat turlari, yoki spirtli ichimliklar va cho'chqa go'shti kabi xarom mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishga investitsiya kiritish islomda taqiqlanadi;

3. Investorlarga investitsiyalarning tabiati va xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot berish uchun sarmoya shaffof va aniq bo'lishi kerak. Bu esa investitsiyalarni yuqorida qayd etilganidek halol bo'lmagan unsurlardan xoli bo'lishini ta'minlash uchun juda muhimdir;

4. Investitsiyalar moddiy tovarni o'z ichiga olishi kerak, moddiy bo'lmagan yoki aktivlar bilan ta'minlanmagan tovarlarni investitsiya qilish mumkin emas;

5. Investor investitsiya qilish maqsadida olingan qarz majburiyatini bajargan yoki bajarmaganligidan qat'i nazar, investor tomonidan investitsiyaga aniq egalik huquqiga ega bo'lishi kerak.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra xulosa yasaydigan bo'lsak, islomiy investitsiyalar deganda shariat tamoyillariga muvofiq sarmoya kiritish amaliyoti tushuniladi. Shariatga muvofiq investitsiya qilishda, ribo (ta'qiqlangan foiz), g'arar (shartnoma va kelishuvlardagi mavhumlik, noaniqliklar), maysir (chayqovchilik) va ayrim faoliyat turlari (alkogol, narkotik, tamaki, cho'chqa go'shti mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ularning savdosi)ni o'zida aks ettirgan biznes faoliyatiga sarmoya kiritishni taqiqlaydi. Islomiy investitsiya tamoyillari axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni, shuningdek, risklarni taqsimlash va aktivlar bilan ta'minlangan amaliyotlarni ta'kidlaydi. Bu ko'pincha islom tamoyillariga amal qiladigan ko'chmas mulk, tovarlar va kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari kabi moddiy aktivlar yoki xizmatlarga asoslangan investitsiyalarga e'tibor qaratishga olib keladi. Bunda, foyda va zararlarni

²⁰⁸ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.- Toshkent: "Sharq" NMAK, 2012.

²⁰⁹ Mukhriz Mudaris Mahmud, Islamic Investment Opportunities, presented on 8th September 2001, available at www.klse.com.my (slide 3)

taqsimlashga asoslangan investitsiya vositalari mudoraba (kapital va mehnat sherikchiligi) va mushoraka (sharikchilik) hamda sukuk (islom qimmatli qog‘ozilardan keng foydalaniladi. Umuman olganda, islomiy investitsiyalarning maqsadi shariat tamoyillariga rioya qilgan holda daromad keltirish va ijtimoiy mas‘uliyatli hamda axloqiy jihatdan iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishdir.

Islomiy investitsiyalarga bugungi kunda nafaqat musulmon mamlakatlarida shuning bilan birgalikda musulmon bo‘lmagan mamlakatlarda ham talab keskin oshib bormoqda. Shunday ekan, O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga urg‘u berish ko‘plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishga katta yordam bergan bo‘lar edi. Aholisining asosiy qismi musulmonlardan iborat bo‘lgan O‘zbekiston uchun muhim tavsiya eng avvalo, me‘yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholiga islom moliyasiga doir tegishli tushuntirish ishlarini olib borish va ular ongida islom moliyasiga doir ma‘lum bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, turli davlatlar ya‘ni investor mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Islamic Corporation for the Development of the Private Sector-Refinitiv. "Islamic Finance Development Report 2022*
2. http://www.lightbulbpress.com/pr_islamic/pressrelease.html
3. http://www.lightbulbpress.com/pr_islamic/pressrelease.html
4. *Mukhriz Mudaris Mahmud, Islamic Investment Opportunities, presented on 8th September 2001, www.klse.com.my*
5. *Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.- Toshkent: "Sharq" NMAK, 2012.*

O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Moliya fakulteti 2-kurs talabasi

So‘ngi bir necha o‘n yillikda musulmonlar o‘z hayotlarini islomiy tamoyillar asosida qayta qurishga intilmoqdalar. Ular o‘tgan asrlarda G‘arbning siyosiy va iqtisodiy hukmronligi ularni, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ilohiy hidoyatdan mahrum qilganini qattiq his etadilar. Va natijada, siyosiy erkinlikka erishgach, omma o‘zining islomiy qarashlarini qayta tiklashga, jamoaviy hayotini islomiy ta‘limotga asosan tashkil etishga intilmoqdalar. Islom dinida Allohga itoat nafaqat ibodatda, balki uning iqtisodiy faoliyatida talab qilinadi. Va albatta bunday faoliyatda ayrim zohiriy manfaatlardan voz kechish lozim chunki bu jamiyat va jamoaviy manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin.

Islomiy moliya tarmog‘i so‘ngi yillarda jahonda tobora rivojlanib borayotgan hamda innovatsion moliyalashtirishni o‘zida mujassamlashtirgan sohalardan biri hisoblanadi. Islomiy moliya sanoati butun dunyodagi aktivlar ulushi sifatida katta miqdorga ega bo‘lmasa-da, hozirgi paytdagi ilmiy izlanishlar, hozirgi o‘shish